

---

# OLTIARIQ TUMAN HOKIMINING MUROJAATI



**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining joriy yil 11-12 iyul kunlari Farg'ona viloyatiga tashrifi davomida berilgan topshiriqlari yuzasidan Oltiariq tumani hokimi Sh.A.Turdaliyevning tuman xalqiga**

## MUROJAATI

### Assalomu alaykum hurmatli Oltiariqliklar!

Davlatimiz rahbarining joriy yilning 11-12 iyul kunlari Farg'ona viloyatiga hudud sanoati va infratuzilmasining rivojlanishi, mahallalarda olib borilayotgan yirik bunyodkorlik ishlari bilan tanishish, yangi yirik loyihalarga start berish yuzasidan tashrifi davomida bizga yangi imkoniyatlar eshigini ochib berdi.

Muhtaram Prezidentimiz raisligida o'tkazilgan **faollar yig'ilishida** Oltiariq tumanini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilib, qator mas'uliyatli topshiriq va vazifalari berildi.

Oltiariq tumani aholisi **226,1 minga** yaqinlashganini inobatga olib, tumanda salohiyatli tadbirkorlar ko'pligi, imkoniyat ham, sharoit ham yetarlicha ekanligi, agar to'g'ri yondashuv va tizimli ishlar tashkil etilsa, **investitsiya, ishlab chiqarish, ish o'rini** va **eksportni** karrasiga oshirish mumkinligi ko'rsatib o'tildi.

Ushbu ishlarni amalga oshirish uchun tumanni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha alohida dastur ishlab chiqdim.

Shu maqsadda, davlatimiz rahbari tomonidan belgilangan rejalarga muvofiq quydagi ishlarni amalga oshiraman.

Oltiariq tumanidagi **"Hamza ekspozitsiya Tekstil" xususiy korxonasi** tomonidan qiymati **113,0 mlrd. so'mlik** trikotaj va tekstil mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish (2-bosqich) loyihasi amalga oshiriladi. Natijada **200 ta** yangi ish o'rni yaratiladi.

Tumanidagi **"OKTAM" xususiy korxonasi** tomonidan "Navoiy" MFY hududidagi foydalanilmay turgan qozonxona o'rnida qiymati **5 mlrd.so'mlik** "Zamonaviy tibbiy klinika" tashkil etiladi. Natijada **55 ta** yangi ish o'rinlari yaratiladi.

Tumanidagi **"Zarimoda" MChJ** tomonidan "Gulobod" MFY hududidagi bo'sh turgan bino negizida trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish loyihasi tashkil etiladi. Natijada hududdagi **100 ta** ayollar uchun doimiy ish o'rni yaratiladi.

Oltiariq tumani hududidan **52,67 gektar** yer maydonida ishlab chiqarish korxonalari uchun kichik sanoat zonasi tashkil etilib, **3000 ta** yangi ish o'rinlari yaratiladi. Shu bilan birgalikda "Katput massivi 2-uchastka" va "Oqbo'yra massivi"dagi yerlarda kichik sanoat zonasi tashkil etilib, **300 dan** ortiq tadbirkorlik sub'ektlari joylashtiriladi.

Oltiariq tumanidagi **"Qiziltepa MFY hududidagi"** Shifobaxsh suv (*Oshqozon ichak yo'llarini*) davolashga ixtisoslashgan mavjud **8 ta** sihatgoxlarni kengaytirish hamda ushbu hududga yaqin joylashgan mahallada uy mexmonxona, savdo va servis ob'ektlarini joylashtirib, yiliga **10 ming** turist jalb qilish imkoniyati yaratiladi.

Tumanni iqtisodiy rivojlantirish maqsadida Prezidentimiz belgilab bergan yangicha tizim asosida ish olib borib, tadbirkorlar bilan uchrashuvlar o'tkazib, ularning muammolarini hal etish, qo'shimcha imkoniyatlarini ishga solish orqali joriy yilda **sanoat** mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini **1051,3 mlrd** so'mga yetkazib, **1,2 barobarga** oshiraman.

---

Davlatimiz rahbari dunyodagi o'ta murakkab sharoitda jahon bozorlariga yangi yo'l ochish, investitsiya olib kelish bo'yicha aniq vazifalar belgilab berdilar.

Shundan kelib chiqib umumiy qiymati **19,2 mln dollarlik 20 ta** loyihalarni shakllantirib oldik va ularni yil yakuniga qadar to'liq ishga tushirilishini ta'minlayman.

---

Muhtaram Prezidentimiz tomonidan eksportyor korxonalarini qo'llab quvvatlashi natijasida tumanda **2023 yilda 109,1 mln.** dollar eksport qilingan bo'lsa, **joriy yil** yakunida bu ko'rsatkichni **129,4 mln.** dollarga yetkazaman.

Qurilish materiallari ishlab chiqarish xajmini oshirish orqali tannarxni pasaytirish, yangi qurilayotgan uy-joylar uchun qurilish materiallariga bo'lgan ehtiyojlarni viloyatda ishlab chiqarilgan temir-beton va tsement mahsulotlari bilan ta'minlash bo'yicha bergan topshiriqlari ijrosini ta'minlash maqsadida yakuniga qadar tumanda qurilish yo'nalishida **2 ta** loyihalar ishga tushiriladi.

Shuningdek tumanni Tinchlik shaharchasining shaharsozlik qiyofasini o'zgartirish, ko'p qavatli uy-joylarda yashovchi aholiga qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida 1968-1975 yillar oralig'ida qurilgan, ma'nan eskirgan **2 qavatli 2 ta** turar-joylarni salohiyatli tadbirkorlarni jalb qilgan xolda renovatsiya asosida yangitdan quriladi.

Bunda binolar 5-7 qavatli, yerto'la va 1-qavatlarida hizmat ko'rsatish ob'ektlarini joylashtirish belgilanadi.

Aholi daromadlarini oshirish, kambag'allikni qisqartirish maqsadida **yil yakuniga** qadar tumanda **8 896 nafar** aholi bandligi ta'minlanadi, jumladan:

investitsiyalar, tashqi savdo va mahalliy sanoatni rivojlantirish yo'nalishida – **756 ta**;

moliya-iqtisod, tadbirkorlik va kambag'allikni qisqartirish yo'nalishida aholini doimiy, vaqtinchalik va mavsumiy ishlarda band qilish – **3520 ta**;

qishloq, suv va o'rmon xo'jaligida doimiy, vaqtinchalik va mavsumiy ishlarda band qilish orqali – **4324 ta**;

qurilish, transport va kommunal sohalarida aholini doimiy ishlarda band qilish va korxonalarda norasmiy ishlayotgan xodimlarni vaqtinchalik prognoz ko'rsatkichlari – **296 ta** aholi bandligi ta'minlanadi.

Aholini kambag'allikdan chiqarish va daromadini oshirish maqsadida quyidagi ishlarni amalga oshiraman, jumladan:

mahallalarda qiymati **46,6 mlrd** so'm bo'lgan **1 440 ta** kichik ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish mikroloyihalarini ishga tushirish hisobiga ikkinchi yarim yillikda **2 907 nafar** aholi band qilinadi.

Shuningdek **13 928 ta** o'zini-o'zi band qilish, **307 ta** yakka tartibdagi tadbirkorlik, **326 ta** yangi korxonalar va **4 333 ta** dehqon xo'jaliklari tashkil etiladi;

mahalla tomorqasida va uy xo'jaligida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish doirasida yil yakuniga qadar **2,1 ming nafar** aholi bandligi ta'minlanadi, ushbu maqsadlarga jami **40,0 mlrd so'm** imtiyozli kredit mablag'lari yo'naltiriladi;

tijorat banklari tomonidan o'z mijozlari bilan **19 ta** uchrashuvlarda **798 ta** tadbirkorlik sub'ektlarini jalb qilish hisobiga **1 995 ta** qo'shimcha ish o'rinlari yaratiladi.

Bugungi kunda migratsiyada yurgan, hatlov natijasi kam daromad olayotganligi aniqlangan **2 017 nafar** fuqarolarni qaytarib va ularni doimiy daromadga ega, kafolatlangan ish o'rin bilan ta'minlayman.

Bunda ularni bilim va ko'nikmalaridan kelib chiqib ishlab chiqarish korxonalariga joylashtiriladi. Shuningdek kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitilib, subsidiya hamda imtiyozli kredit mablag'lari hisobidan tadbirkorlikka yo'naltiriladi.

Aholini tamorqadan foydalanishi madaniyatini yanada oshirib, mazkur yo'nalishda "Sayxunobod", "Uychi tajribalari"ni keng qo'llayman.

Yuqoridagi tadbirlarni amalga oshirish natijasida joriy yil yakuni bilan **14,6 ming** nafar aholi bandligi ta'minlanadi, **6,5 ming** nafar aholi biznesga jalb qilinadi, barcha mahallalar **"ishsizlikdan holi hudud"ga aylantiriladi**, kambag'allik darajasi **12,0 foizdan 9,8 foizga**, ishsizlik **7,0 foizdan**

**2,9 foizga** kamaytiraman.

---

Shuningdek, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish xajmini **1 051,3 mlrd** so'mga (108,1 %), xizmat ko'rsatish hajmini **1 416 mlrd** so'mga (117,5 %), qishloq xo'jaligi xajmini **3 950,1 mlrd** so'mga (103,5 %), eksport xajmini **129,4 mln** dollarga (113 %) yetkazamiz.

Davlatimiz rahbarining bergan vazifa va topshiriqlaridan tegishli hulosalar chiqargan holda Men o'z komandam va albatta Sizlar bilan birgalikda mazkur vazifalarni to'laqonli bajarishda bor kuch-g'ayratim va shijoatimni sarflayman.

Bunda Allohni o'zi madadkor bo'lsin.

2024-07-18 13:39:04